




JINOYAT PROTSESSIDA DALILLARNING MAQBULLIGI MEZONLARI VA MASALALARI

Jumayev Firdavs Nusratovich

Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistraturasi talabasi

el.pochta:jumayevfirdavs598@gmail.com

Tel:(88)183-33-02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19000649>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 4-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 13-mart 2026 yil

KEY WORDS

Jinoyat protsessi, dalillar, maqbullik, nomaqbul dalillar, protsessual tartib, sud amaliyoti, konstitutsiyaviy huquqlar, isbotlash jarayoni, qonuniylik, adolatli sudlov.

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada jinoyat protsessida dalillarning maqbulligi tushunchasi, uning nazariy-huquqiy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Dalillarning maqbulligi jinoyat sudlovining adolatli va qonuniy amalga oshirilishini ta'minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Maqolada dalillarni maqbul deb topish mezonlari, xususan, ularning qonuniy manbadan olinishi, protsessual tartibga rioya qilinishi, shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga zarar yetkazilmasligi kabi talablar ilmiy jihatdan asoslab berilgan

Avvalo, "mezon" tushunchasini aniqlab olish lozim, ya'ni u qaysi ma'noda qo'llanilishini belgilash zarur. Ojegovning izohli lug'atida mezon "baholash va hukm chiqarish o'lchovi"[1] sifatida ta'riflanadi. O'z navbatida, Buyuk Sovet Ensiklopediyasi quyidagi ta'rifni beradi: "Mezon — baholash, aniqlash yoki tasniflash amalga oshiriladigan belgi; hukm va baholash o'lchovi"[2]. Keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib, mezon tushunchasi sifatida baholash yoki hukm chiqarish o'lchovi ma'nosini asos qilib olamiz.

Shundan kelib chiqib, navbatdagi savol tug'iladi: baholash o'lchovi deganda nimani tushunish lozim? Ushbu holatda biz baholashni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan muayyan me'yorni, ya'ni baholash aynan nimaga asoslanib olib borilishini tushunamiz. Boshqacha aytganda, baholash jarayonida nimaga tayanish zarurligini anglatadi. Agar matematik tildan foydalanadigan bo'lsak, bu — dalillarni baholashda qaysi o'lchov birliklari qo'llanilishi masalasidir. Albatta, yurisprudensiyada aniq o'lchov birligi mavjud emas, biroq sudya baholashni amalga oshiradigan vositalar mavjud.

Biroq bu yerda yana bir muhim savol yuzaga keladi: baholashni qanday o'lchash mumkin? Ya'ni, obyektiv reallikda mavjud bo'lmagan, o'lchov asboblari bilan o'lchab yoki tarozida tortib bo'lmaydigan hodisani qanday baholash mumkin? Shu sababli mezon tushunchasini izohli lug'atlar taklif qilganidek, so'zma-so'z emas, balki aniq ko'rib chiqilayotgan jarayonga nisbatan talqin qilish lozim.

Mazkur holatda mezonlar deganda qonun chiqaruvchi organlar tomonidan belgilangan dalillarni baholashdagi erkinlik chegaralari, shuningdek dalillarni bevosita baholash

jarayonida sudyaning ichki ishonchiga berilgan erkinlik chegaralari — ya'ni ichki ishonchning dalillarni baholash vositasi sifatidagi doirasi nazarda tutiladi.

Dalillarni baholash mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin: qonun, vijdon, aybsizlik prezumpsiyasi, ichki ishonch (intuitsiya), sudning dalillarni baholashda ixtiyoriyligi, shuningdek sud amaliyoti ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sud amaliyoti dalillarni baholash mezonlarining barqaror va izchil qo'llanilishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Sud amaliyoti orqali mezonlarning real mazmuni ochiladi va ular nazariy tushuncha darajasidan amaliy mexanizm darajasiga ko'tariladi

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, dalillarni baholash mezonlari tushunchasi faqat lug'aviy yoki nazariy ta'riflar bilan cheklanmasligi lozim, balki u sud amaliyotida real qo'llaniladigan huquqiy mexanizm sifatida talqin etilishi zarur. "Mezon" tushunchasini baholashning oddiy o'lchovi sifatida emas, balki dalillarni baholash jarayonida sud faoliyatini yo'naltiruvchi, cheklovchi va muvozanatlashtiruvchi normativ-axloqiy asoslar majmui sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Dalillarni nomaqbul deb topish mezonlari — bu dalilning jinoyat ishi bo'yicha isbotlashda foydalanishga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini aniqlashga xizmat qiladigan huquqiy talablar majmuidir. Ushbu mezonlar jinoyat protsessida qonuniylik, adolatlilik va shaxs huquqlarining kafolatlanganligini ta'minlashga qaratilgan.

Dalillarni nomaqbul deb topish mezonlari jinoyat protsessida isbotlash jarayonining eng muhim huquqiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur mezonlar dalillarning qonuniy yo'l bilan olinganligini, ularni yig'ish va rasmiylashtirish jarayonida shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilmaganligini, shuningdek dalillarning ishonchliligi va protsessual shakliga rioya etilganligini aniqlashga xizmat qiladi. Aynan ushbu mezonlar orqali sud va tergov organlari dalillarning yaroqliligini baholaydi hamda noqonuniy usullar bilan olingan ma'lumotlarning isbot jarayoniga kiritilishining oldi olinadi.

Dalillarni nomaqbul deb topish mezonlari, bir tomondan, jinoyat ishlarini to'g'ri va adolatli hal etishni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, shaxs huquqlarining kafolatli himoyasini ta'minlaydi. Chunki har qanday dalilning yaroqliligi nafaqat uning mazmuniga, balki uni olish va mustahkamlash jarayonidagi protsessual tartiblarga qat'iy rioya etilganligiga bog'liqdir. Shu sababli, mazkur mezonlarning mazmuni va ularni amaliyotda qo'llash masalalari jinoyat-protsessual huquq nazariyasining dolzarb ilmiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur mezonlarning chuqur tahlili jinoyat protsessida isbotlash faoliyatining chegaralarini aniqlash, tergov va sud organlari faoliyatida protsessual intizomni mustahkamlash, shuningdek, shaxsning daxlsizligi va himoya huquqini real kafolatlash nuqtai nazaridan alohida ilmiy qiymatga ega. Shu sababli dalillarni nomaqbul deb topish mezonlari masalasi nafaqat nazariy konstruktsiya sifatida, balki jinoyat-protsessual faoliyatning real amaliy mexanizmi sifatida kompleks tadqiq etilishi lozim bo'lgan muhim ilmiy muammo hisoblanadi.

Jinoyat sudlov ishlarini yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishning barcha holatlari to'g'risida zarur ma'lumotlarni to'plashni ta'minlash bilan bir qatorda, ularning qonun talablariga rioya etilgan holda to'planganligi; ularning isbotlash predmetiga aloqadorligi; ish bo'yicha to'plangan dalillar protsessual qarorlar qabul qilish uchun asos bo'la olishi; isbotlash predmeti holatlari to'g'risida ishonchli xulosaga kelish uchun yetarliligi; tadqiq etilayotgan hodisa yuzasidan to'la va ishonchli ma'lumotlarni o'zida qanchalik mujassamlashtirganligi masalalarini hal etishlari lozim.[3]

Fikrimcha, muallif fikriga ko'ra dalillarni baholashda ko'rsatilgan mezonlar jinoyat protsessida haqiqatni aniqlashning asosiy huquqiy tayanchi hisoblanadi. Ayniqsa, dalillarning

qonuniy yo'l bilan olinganligi va ularning isbotlash predmetiga aloqadorligi mezonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki mazkur talablarga rioya qilinmasdan tuzilgan dalillar, hatto mazmunan to'g'ri bo'lsa ham, odil sudlov maqsadlariga xizmat qila olmaydi. Shu sababli, mazkur mezonlarni jinoyat-protsessual faoliyatda qat'iy va izchil qo'llash qonuniylik, adolat va inson huquqlarini real ta'minlashning eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, qonun va vijdon dalillarni erkin baholash tamoyilining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Dastlab bu ikki tushuncha bir-biriga ziddek ko'rinishi mumkin, biroq ularning mohiyatiga chuqurroq nazar tashlanganda, ular o'zaro qarama-qarshi emas, aksincha, bir-birini to'ldiruvchi va muvozanatlashtiruvchi omillar ekanligi ayon bo'ladi. Qonun sud faoliyatining huquqiy chegaralarini belgilasa, vijdon ushbu faoliyatga axloqiy mazmun baxsh etadi. Aynan ularning uyg'unligi sud qarorlarida nafaqat qonuniylikni, balki adolat va insoniylikni ham ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, qonun va vijdon sud faoliyatida huquqiy talablar bilan insoniy qadriyatlar tutashadigan nuqtani ifodalaydi.

Sudyaning butun faoliyati va u qabul qiladigan barcha qarorlar qonunga asoslangan bo'lishi va qonun doirasida qabul qilinishi lozim. Sudya o'z faoliyatini jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni buzmaganda holda, balki unga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirishi shart. Bu esa ushbu jarayonda yuzaga keladigan keng doiradagi masalalarni hal etish imkonini beradi.

Birinchi masala — bu protsessual shakl masalasidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 11-moddasida[4] jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishda qonuniylik tamoyili mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unda huquqiy normalarning buzilishi olingan dalillarning maqbul bo'lmasligiga olib kelishi aniq belgilangan. Bu holat, o'z navbatida, sudya tomonidan ish bo'yicha qabul qilingan qarorning ham "maqbul emas" deb topilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ya'ni, baholash natijasi to'g'ri bo'lgan yoki bo'lmaganidan qat'i nazar, bunday qaror ustidan e'tiroz bildirish mumkin bo'ladi.

Qonunchilikda yakuniy sud qarorining, shuningdek protsessual hujjatlarning adolatiligi mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, bu holat sud faoliyatining asosiy vazifasi — odil sudlovni amalga oshirishdan ham kelib chiqadi. Odil sudlov — bu qonun asosida hukm chiqarishdir.

Dalillarni baholash jarayonida sud qarorining qonuniyligi va adolatiligi ko'p jihatdan aybsizlik prezumpsiyasiga rioya etilishiga bog'liq. Mazkur mezon ayblov hukmini chiqarish uchun shunday miqdorda va shunday sifatadagi dalillar to'planishini talab qiladiki, sudyada jinoyat sodir etilgani va uni aynan sudlanuvchi sodir etganiga nisbatan hech qanday shubha yoki ishonchsizlik qolmasligi lozim.

Aybsizlik prezumpsiyasi - O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasida belgilab qo'yilgan[5] gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Shuningdek qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Huquqshunos olimlar aybsizlik prezumpsiyasining mazmunini turlicha talqin qiladilar. Jumladan, Yu.K. Orlov[6] aybsizlik prezumpsiyasini quyidagi uchta qoida orqali tavsiflaydi:

1. isbotlash majburiyati to'g'risidagi qoida;
2. shubhalarni talqin qilish qoidasi;
3. isbotlanmagan ayb isbotlangan aybsizlikka tenglashtirilishi haqidagi qoida.

L.D. Kokorev va N.P. Kuznetsov aybsizlik prezumpsiyasining mazmunini quyidagicha ifodalaydilar: ayblov hukmi taxminlarga asoslanishi mumkin emas, shuningdek shaxsning aybdorligi to'g'risidagi xulosalar qarama-qarshi ma'lumotlarga tayanib chiqarilishi mumkin emas[7] degan g'oyani olgari surishadi.

Yu.V. Frantsiforov, V.A. Ponomarenkov hamda N.A. Gromovlarning fikricha, aybsizlik prezumpsiyasining isbotlash jarayonidagi amal qilishi quyidagilarni anglatadi[8]:

- a) jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishda holatlarni o'rganishda biryoqlama, faqat ayblovga yo'naltirilgan yondashuvga yo'l qo'yilmaydi;
- b) ayblov hukmi taxminlarga asoslanishi mumkin emas va faqat sud muhokamasi davomida sudlanuvchining aybi isbotlangan taqdirdagina chiqariladi;
- v) ayblovning isbotlanganligiga doir har qanday bartaraf etib bo'lmaydigan shubha ayblanuvchi foydasiga talqin qilinadi;
- g) ayblanuvchining jinoyat sodir etishda ishtirok etganligini tasdiqlovchi dalillar yetarli bo'lmagan va qo'shimcha dalillar to'plash imkoniyati mavjud bo'lmagan hollarda u aybsiz deb topiladi;
- d) isbotlash majburiyati ayblovchi zimmasiga yuklatiladi;
- e) ayblanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashga majbur emas.

Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, aybsizlik prezumpsiyasi ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin qilinadi. O.V. Levchenko o'zining "Jinoyat ishlari bo'yicha isbotlash jarayonida ayblanuvchining aybsizlik prezumpsiyasi" nomli asarida[9] ushbu prezumpsiyani talqin etishda bir nechta tushunchalar aralashib ketayotganini ta'kidlaydi, ya'ni:

- ayblanuvchining aybsizligi jinoyat-protsessual prezumpsiya sifatida;
- aybsizlik prezumpsiyasi jinoyat sudlovining prinsipi sifatida;
- aybsizlik prezumpsiyasi huquqiy institut sifatida.

Aybsizlik prezumpsiyasi — qonuniylikka rioya etilishining eng muhim kafolati, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash vositasi, ularni asossiz ayblash va javobgarlikka tortishning oldini olish, davlat hokimiyati organlarining o'zboshimchaliklaridan himoya qilish mexanizmidir. Ushbu prezumpsiya orqali jinoyat protsessining muhim vazifalaridan biri — shaxsni uning aybi yetarli darajada isbotlanmagan holda ayblashga yo'l qo'ymaslikni amalga oshiriladi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar va ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyat protsessida dalillarning maqbulligi va ularni nomaqbul deb topish mezonlari isbotlash faoliyatining markaziy va hal qiluvchi institutlaridan biri hisoblanadi. "Mezon" tushunchasi oddiy lug'aviy ma'noda baholash o'lchovi sifatida talqin etilsa-da, jinoyat-protsessual faoliyat doirasida u sud va tergov organlari faoliyatini yo'naltiruvchi, cheklovchi hamda muvozanatlashtiruvchi normativ-huquqiy va axloqiy asoslar majmui sifatida namoyon bo'ladi.

Dalillarni nomaqbul deb topish mezonlari, avvalo, dalillarning qonuniy manbadan olinganligi, protsessual tartibga qat'iy rioya etilganligi, shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilmaganligi hamda ularning ishonchliligi va isbotlash predmetiga aloqadorligini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur mezonlar jinoyat protsessida qonuniylik va adolatlikni ta'minlashning muhim kafolati bo'lib, noqonuniy yo'l bilan olingan ma'lumotlarning isbotlash jarayoniga kiritilishining oldini oladi

Shu bilan birga, dalillarni baholash jarayoni faqat formal yondashuv bilan cheklanmaydi. Unda sudyaning ichki ishonchi, vijdoni, aybsizlik prezumpsiyasi va qonun talablariga sodiqligi o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Qonun sud faoliyatining huquqiy chegaralarini belgilasa, vijdon va ichki ishonch ushbu faoliyatga insoniylik va adolat mazmunini baxsh etadi. Ayniqsa, aybsizlik prezumpsiyasi dalillarni baholashda asosiy yo'naltiruvchi mezon bo'lib, barcha bartaraf etib bo'lmaydigan shubhalarning ayblanuvchi foydasiga hal etilishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dalillarni nomaqbul deb topish mezonlari jinoyat ishlarini to'g'ri va adolatli hal etish bilan bir qatorda, shaxs huquq va erkinliklarini real himoya qilishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Ushbu mezonlarning izchil va qat'iy qo'llanilishi tergov va sud organlari faoliyatida protsessual intizomni mustahkamlaydi, odil sudlovni ta'minlaydi hamda asossiz ayblov va javobgarlikka tortishning oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, dalillarning maqbulligi va ularni nomaqbul deb topish mezonlari jinoyat-protsessual huquq nazariyasi va amaliyotida kompleks yondashuvni talab qiladigan dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur institutni chuqur ilmiy tahlil qilish va uni amaliyotda to'g'ri qo'llash jinoyat sudlovining asosiy maqsadi — qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Толковый словарь Ожегова <https://gufo.me/dict/ozhegov/критерий>
2. Большая советская энциклопедия <https://gufo.me/search?term=критерий>
3. Tulaganova, G.Z., Bazarova, D.B. Dalillar nazariyasi [Matn]: darslik / G.Z. Tulaganova, D.B. Bazarova. – T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 320 b..
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-111460>
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-111460>.
6. Орлов Ю.К. Основы теории доказательств в уголовном процессе. — М., 2001. — С. 96—97
7. Кокорев Л.Д. Уголовный процесс: доказательства и доказывание / Л.Д. Кокорев, Н.П. Кузнецов. — Воронеж, 1995. — С. 255—257.
8. Францифоров Ю.В. Презумпция невиновности в уголовно-процессуальном доказывании / Ю.В. Францифоров, В.А. Пономаренков, Н.А. Громов // Следователь. — 1999. — № 3. — С. 10
9. Левченко О.В. Презумпция невиновности обвиняемого в доказывании по уголовным делам. — Астрахань, 2001. — С. 43.